

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Etnoarxeologiya: inson turmush tarzini qayta qurish usuli sifatida (dafn marosimlari misolida)	465
N.N.Maqsudov	
Marginallashuvni vujudga keltiruvchi sabab va shart-sharoitlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	470
N.Sh.Kambarov	
Farg'ona vodiysining ilk temir davri yog'och qoldiqlari ustida olib borilgan kichik paleobotanik tadqiqot.....	474
Sh.F.Polvonov	
Yoshlarda tafakkur madaniyatini shakllantirishning ma'naviy-axloqiy omillar bilan uyg'unligi	480

TAQRIZ

R.K.Yusupov	
Maxmudov Toxir Isaevich Temuriylar davri Renessansida ta'lim va fan uyg'unligi.....	485



UO'K 902.3:39(575.1)

ETNOARXELOGIYA: INSON TURMUSH TARZINI QAYTA QURISH USULI SIFATIDA (DAFN MAROSIMLARI MISOLIDA)**ЭТНОАРХЕОЛОГИЯ: КАК МЕТОД РЕКОНСТРУКЦИИ ОБРАЗА ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА (НА ПРИМЕРЕ ПОГРЕБАЛЬНЫХ ОБРЯДОВ)****ETHNOARCHAEOLOGY AS A METHOD OF RECONSTRUCTING HUMAN LIFESTYLE (ON THE EXAMPLE OF FUNERARY RITUALS)****Aloxunov Alisher Axmadjonovich**

Fargona davlat universiteti O'zbekiston-Xitoy arxeologiya qo'shma kafedrası dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada etnoarxeologiya fanining nazariy va metodologik asoslari, uning arxeologik tadqiqotlardagi roli hamda inson turmush tarzini qayta qurishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda etnoarxeologiya qadimgi jamiyatlarning moddiy va ma'naviy madaniyatini qayta tiklashga qaratilgan ilmiy usul sifatida ko'rib chiqiladi. Dafn marosimlari misolida arxeologik ma'lumotlar bilan etnografik kuzatuvlar o'rtasidagi bog'lanish tahlil qilinadi, bu esa qadimgi insonning dunyoqarashi, marosimlari va ijtimoiy tuzilishini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Аннотация

В данной статье раскрываются теоретические и методологические основы этноархеологии, её роль в археологических исследованиях и значение в реконструкции образа жизни человека. Кроме того, в исследовании этноархеология рассматривается как научный метод, направленный на восстановление материальной и духовной культуры древних обществ. На примере погребальных обрядов анализируется взаимосвязь археологических данных с этнографическими наблюдениями, что позволяет глубже понять мировоззрение, ритуалы и социальную структуру древнего человека.

Abstract

This article explores the theoretical and methodological foundations of ethnoarchaeology, its role in archaeological research, and its significance in reconstructing the human way of life. Furthermore, the study considers ethnoarchaeology as a scientific method aimed at reconstructing the material and spiritual culture of ancient societies. Using burial rituals as an example, the connection between archaeological data and ethnographic observations is analyzed, which makes it possible to gain a deeper understanding of the worldview, rituals, and social structure of ancient humans.

Kalit so'zlar: etnoarxeologiya, arxeologiya, etnografiya, analogiya usuli, o'rta diapazon nazariyasi, relyatsion analogiya, dafn marosimlari, moddiy madaniyat, turmush tarzi, madaniy an'analar, arxeologik yodgorlik, etnografik kuzatuv, madaniy rekonstruksiya, fanlararo yondashuv.

Ключевые слова: этноархеология, археология, этнография, метод аналогий, теория среднего диапазона, реляционная аналогия, погребальные обряды, материальная культура, образ жизни, культурные традиции, археологический памятник, этнографическое наблюдение, культурная реконструкция, междисциплинарный подход.

Key words: ethnoarchaeology, archaeology, ethnography, analogy method, middle-range theory, relational analogy, funerary rituals, material culture, lifestyle, cultural traditions, archaeological site, ethnographic observation, cultural reconstruction, interdisciplinary approach.

KIRISH

Etnoarxeologiya – bu arxeologiya va etnografiya fanlari chorrahasida shakllangan ilmiy yo'nalish bo'lib, u insonning moddiy faoliyati va madaniy an'analari orqali o'tmish jamiyatlar hayotini qayta tiklashga qaratilgan. Bu sohadagi tadqiqotlar zamonaviy xalqlarning turmush tarzi, mehnat an'analari, qurilish, hunarmandchilik, xo'jalik faoliyati va ma'naviy qadriyatlarini o'rganish orqali arxeologik ma'lumotlarni chuqurroq talqin qilish imkonini beradi.

Etnoarxeologiyaning asosiy maqsadi arxeologik yodgorliklar va moddiy madaniyat namunalarini faqat topilmalar sifatida emas, balki inson faoliyatining natijasi sifatida izohlashdir. Shu boisdan, etnoarxeologik tadqiqotlar inson xulq-atvori, ishlab chiqarish texnologiyalari va jamiyatning ijtimoiy munosabatlar tizimini qayta qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalish arxeologiyaning protsessual va postprotsessual bosqichlarida shakllangan bo'lib, xususan XX

asrning ikkinchi yarmida Lyuis Binford, Richard Guld, Kerol Kramer, Nikolas Devid kabi olimlar etnoarxeologiyaning nazariy asoslarini yaratdilar. Ular zamonaviy jamoalarda kuzatilgan moddiy madaniyat jarayonlarini arxeologik dalillar bilan taqqoslash orqali arxeologiyaga yangi tahlil usullarini kiritdilar[7]. Garchi etnografiya uzoq vaqtdan beri arxeologlar tomonidan o'tmish bilan bog'liq o'xshashliklar (analogiyalar)ni o'rganishda qo'llanib kelayotgan bo'lsa-da, u aslida arxeologik tadqiqotlarning asosiy maqsadlariga mo'ljallanmagan edi. Shu bois, arxeologlar "etnografiya biz izlayotgan aniq ilmiy savollarga yetarli javob berolmayapti" degan fikrni ilgari surganlar va natijada etnoarxeologiya degan yangi yo'nalish vujudga kelgan[2:87-103].

Amerikalik arxeolog Jessi Uolter Fyuks (Jesse Walter Fewkes) birinchi marta "etnoarxeologiya" atamasini 1900-yilda ishlatgan va arxeologlarni etnografik kuzatuvlarni o'zlari mustaqil ravishda olib borishga chaqirgan[8:579].

Etnoarxeologiya arxeologiyaning alohida yo'nalishi sifatida faqat 1950–1960-yillarda ilmiy jamoatchilik tomonidan keng tan olindi. Bu davrda arxeologlar yangi usulni jamiyatshunoslik, ekologiya, etnologiya, iqtisod va madaniyatshunoslik kabi sohalar bilan bog'lab, uning imkoniyatlarini kengroq qo'llashni boshladilar.

Bugungi kunda etnoarxeologiya dunyo bo'ylab ilmiy tadqiqotlarning keng tarqalgan amaliyotiga aylandi. Ayrim olimlar o'zlarini endi faqat "arxeolog" emas, balki "etnoarxeolog" sifatida ham ta'riflaydilar, chunki ularning ishi zamonaviy jamiyatlar turmush tarzini o'rganish orqali o'tmish madaniyatini qayta tiklashga qaratilgan[4:3-31].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Etnoarxeologiyadagi asosiy muammolardan biri – bu zamonaviy jamiyatlarda kuzatilgan faktlar va ma'lumotlarni arxeologik topilmalarni o'rganish hamda izohlash uchun qanday qilib to'g'ri qo'llash masalasidir. Bu muammo inson xulq-atvori bilan muhit o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek moddiy madaniyat shakli, o'zgaruvchanligi va tuzilishi kabi masalalar bilan uzviy bog'liqdir.

Etnoarxeologiya rivojlanishining ilk bosqichlarida bildirilgan bir qator fikrlar hanuzgacha ilmiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Zamonaviy hodisalar va o'tmish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish usuli analogik xulosa chiqarish (analogiya usuli) deb ataladi.

Analogiya usuli – bu arxeologiyada hozirgi jamiyatlarda kuzatilgan xatti-harakat va ishlab chiqarish usullarini o'tmish jamiyatlariga tatbiq etish orqali ularning turmush tarzini anglash usulidir. Ya'ni arxeolog zamonaviy xalqlarda qayd etilgan moddiy madaniyat va xulq-atvor asosida, shunga o'xshash tabiiy muhitda yashagan qadimgi jamoalar ham o'xshash yo'l tutishi mumkin, degan xulosaga keladi. Ya'ni, analogiya – bu ko'rilgan (hozirgi) holatni ko'rilmagan (o'tmishdagi) holatga qiyoslash. U arxeologiyada turli jamiyatlarning turmush tarzi, mehnat an'analari va muhit bilan munosabatini solishtirishga asoslanadi. Analogiya asosida arxeolog moddiy madaniyat obyektlarining funksiyasini (masalan, idish yoki qurolning ishlatilish maqsadini); uning ishlab chiqarish usuli va texnologiyasini; jamiyatning muhit bilan munosabatini anglash imkonini oladi. Bunday tahlil hozirgi va o'tmish madaniyatlar o'rtasidagi bog'lanishni qayta tiklashga yordam beradi[11:318-319].

Tadqiqotchilar analogiya usulini ishonchliroq qilish yoki unga muqobil yondashuv yaratish maqsadida qator nazariy modellarni taklif qilganlar, ular etnoarxeologiyadagi ilmiy fikr va amaliyotga katta ta'sir ko'rsatgan.

Lyuis Binford (1978) etnoarxeologiyada "o'rta diapazon nazariyasi (middle-range theory)"ni ilgari surib, hozirgi va qadimiy madaniyatlar o'rtasidagi obyektiv bog'lanishni o'rnatishga qaratilgan rasmiy analogiya usulini taklif etgan[1]. Unga muvofiq, P.J.Uotson (1979) etnografik kuzatuv natijalarini arxeologik ma'lumotlar bilan tekshiriladigan gipotezalar sifatida ifoda etishni taklif qilgan[13]. Bu g'oyalar keng qo'llanilgan bo'lsa-da, ular ilmiy bahslarga sabab bo'ldi. Ien Xodder (1982) formal analogiyaga alternativa sifatida relyatsion analogiya g'oyasini ilgari surib, madaniy bog'lanish inson tafakkuri va madaniy kontekstga ham bog'liqligini ta'kidladi[6]. A.Uayli (1985) analogiya usuli bo'yicha turli yondashuvlarni tahlil qilib, hozirgi va o'tmish o'rtasida umumiy ilmiy prinsiplar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi[14].

R.Guld va J.Yyellen (1987) o'xshash muhitda yashagan jamiyatlarda moddiy madaniyat farqlarini isbotlab, analogiya usulining cheklanganligini ta'kidladilar[5:73-74]. A.Shtal (1993) esa analogiya usullarini haddan ziyod qo'llashda ehtiyotkor bo'lish lozimligini uqtirdi[12:235].

Shunga qaramasdan, analogiya usuli etnoarxeologiyada hanuz muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotchilar uni takomillashtirish va qo'llanish sohasini kengaytirish ustida ishlamoqdalar. Xususan, K.Fyuster (2006) analogiya usulining ijobiy jihatlarini ko'rsatib, uni ijtimoiy nazariyani

boyitish vositasi sifatida baholagan[4:61-87]. J.Normark (2009) esa usulni samaraliroq qilish uchun uning fazoviy va xronologik doirasini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan[10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inson hayoti davomida amalga oshiriladigan turli urf-odatlar va marosimlar har bir xalqning madaniy va ruhiy olamining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular orasida dafn marosimlari, ya'ni inson umrining so'nggi bosqichi bilan bog'liq udumlar etnoarxeologiyada jamiyat turmush tarzini, dunyoqarashini va ma'naviy qadriyatlarini anglash uchun eng muhim manbalardan biri sanaladi.

Har bir millat yoki etnik jamoa o'ziga xos dafn an'anasiga ega bo'lib, bu marosimlar jamoa a'zolari tomonidan asrlar davomida avaylab saqlangan va avloddan avlodga o'tgan. Etnoarxeologiya nuqtai nazaridan, bunday marosimlar insonning hayot va o'lim haqidagi tasavvurini, uning tabiat va jamiyat bilan munosabatini aks ettiradi.

Arxeologik tadqiqotlarda ko'pincha qadimiy qabristonlar va dafn inshootlari o'rganiladi. Ulardagi moddiy qoldiqlar – qo'yilgan buyumlar, yoqilgan olov izlari, qurbonlik nishonalari va qabr shakllari o'tmish jamiyatlarining diniy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlari haqida ma'lumot beradi. Bu jarayonda etnoarxeologiya usuli arxeologik topilmalarni zamonaviy etnografik ma'lumotlar bilan taqqoslash imkonini yaratadi. Masalan, arxeolog B.X. Matboboyevning Munchoqtepa, Ko'ktosh va Go'rmiron qabristonlarida olib borgan tadqiqotlari shu jihatdan muhim ahamiyatga ega. Olim V–VIII asrlarga oid dafn inshootlarini etnografik kuzatuvlar bilan solishtirib tahlil qilgan va qadimiy dafn marosimlarining tarkibiy qismlarini aniqlashga harakat qilgan[9:220-221].

Arxeolog tadqiqotidagi ma'lumotlar etnoarxeologik nuqtai nazardan qadimiy jamoalarning turmush tarzi, diniy e'tiqodi va madaniy an'alarini qayta qurish imkonini beradi.

1. Yerga va maxsus to'shama ustiga dafn etish usuli. Bu turdagi qabrlarda marhumlar yoki to'g'ridan-to'g'ri yerga, yoki maxsus gil va toshdan tayyorlangan "to'shama" ustiga yotqizilgan. Bu holat qadimgi odamlarning marhumga nisbatan ehtiromini, uning osoyishtalik topishi uchun qulay muhit yaratishga bo'lgan intilishini ko'rsatadi. Etnoarxeologik jihatdan, bu urf-odat hozirgi zamon xalqlaridagi "qabr tozaligi", "so'nggi manzilga hurmat bilan qo'yish" an'alarining ildizlarini tashkil etadi.

2. Jasadni savatga solib ko'mish. Savat yoki o'simlik tolasidan to'qilgan idishlarga solib ko'mish odati marhum tanasini tabiiy moddalar bilan o'rab, uni tabiatning bir qismi sifatida "qaytarish" g'oyasini aks ettiradi. Bu holat jism va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi qadimiy tasavvurni namoyon qiladi. Etnoarxeologik jihatdan, bu hozirgi etnik jamoalardagi ekofalsafiy qarashlar bilan uyg'un.

3. Qamish tobutga solib dafn etish. Qamish tobutlar arxeologik jihatdan o'sha davr kishilarining mahalliy muhit va resurslardan oqilona foydalanganligini ko'rsatadi. Qamish tobutlar izolyatsiya vazifasini bajarib, marhumni chirishdan saqlagan. Etnoarxeologik nuqtai nazardan, bu holat mahalliy tabiat sharoitiga mos madaniy innovatsiya sifatida baholanadi. Qamish tobutlarda topilgan o'simlik qoldiqlari (ayrim hollarda urug'lari bilan) esa qadimgi odamlar olamdan ko'z yumishni qayta tug'ilish yoki hosildorlik ramzi sifatida ko'rganini anglatadi.

4. Ostadon va xumlarga solib dafn etish. Ba'zi holatlarda marhumning suyaklari xum yoki maxsus idishlarga solib ko'milgan. Bu urf-odat dafndan keyingi qayta ko'mish marosimi (reinterratsiya) bilan bog'liq bo'lib, o'tmish jamiyatlarida inson tanasini muqaddas holatda saqlash, ruhga hurmat bildirish kabi diniy tasavvurlar bilan izohlanadi. Etnoarxeologik jihatdan bu amaliyot ba'zi Osiyo xalqlarida haligacha saqlanib kelayotgan "so'nggi marosimni qayta bajarish" urflariga yaqin.

5. Marhumni kuydirib ko'mish va ot bilan dafn etish urf-odati. Ayrim qabrlarda kuydirilgan suyaklar yoki ot suyaklari bilan birgalikda ko'milgan insonlar topilgan. Bu holat qadimgi jamoalarda o'tni insonning dunyoqarashidagi muhim ramz sifatida qabul qilinganini ko'rsatadi. Bunday marosimlar ko'p hollarda jangchi yoki nufuzli shaxslarga nisbatan amalga oshirilgan bo'lib, bu ularning jamiyatdagi maqomini ifoda etgan.

Etnoarxeologiya nuqtai nazaridan, bu holat marhumning ruhini "ot orqali u dunyoga yetkazish" haqidagi mifologik qarashlarga borib taqaladi[9:225-242].

Arxeolog B.Matboboyev tomonidan aniqlangan qator qo'shimcha detallar ham qadimgi odamlarning dafn madaniyatini chuqurroq anglashga yordam beradi:

Bosh ostidagi yostiq qoldiqlari – marhumning tinch dam olishi va osoyishtaligi haqidagi tasavvurni anglatadi[17:104-124].

Yuzparda yoki yuzpana – marhum yuzini yopish orqali ruhiy himoya ramzi sifatida xizmat qilgan[18:108-120].

Peshonabog' ipak tasma – marhumning jinsi yoki jamiyatdagi maqomiga ishora bo'lishi mumkin[15:9-10].

O'simlik qoldiqlari va urug'lar – qayta tug'ilish, hosildorlik va hayotning davomiyligi g'oyasi bilan bog'liq ramziy ishora[19:326-341].

Marhum yoniga tanga-chaqa qo'yish – bu amaliyot iqtisodiy va diniy ma'nolarni birlashtirib, marhumni "u dunyodagi safar" uchun tayyorlash ramzi hisoblangan[16:45-50; 17:113-117].

Etnoarxeologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, dafn marosimlaridagi har bir urf-odat – jamiyatning turmush tarzi, ishlab chiqarish imkoniyatlari va dunyoqarash tizimining ifodasidir. Qamish, tuproq, metall yoki xum kabi moddiy vositalar orqali insonlar tabiat bilan uyg'unlikda yashagan, o'limni hayotning davomiy bosqichi sifatida qabul qilgan.

Shu jihatdan, B.Matboboyev tadqiqotlariga asoslangan arxeologik dalillar etnoarxeologiya fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular yordamida qadimgi jamiyatlarning madaniy an'analari, diniy qarashlari va hayot tarzini qayta tiklash mumkin bo'lmoqda.

Etnoarxeologik yondashuv dafn marosimlarini faqat diniy yoki an'anaviy amaliyot sifatida emas, balki inson jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi madaniy tizim sifatida ko'radi. Qadimgi jamiyatlarda dafn marosimining shakli, ko'lami va moddiy jihatlari marhumning jamiyatdagi mavqei, jinsi, yoshi yoki kasbiga bog'liq bo'lgan. Bunday holatni nafaqat hozirgi etnografik jamoalarda, balki ilk va o'rta asrlarga oid arxeologik yodgorliklarda ham kuzatish mumkin. Masalan, arxeologik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ayrim qabrlarda qurollar, hunarmandchilik buyumlari yoki ziynat vositalari topilgan bo'lib, bu marhumning hayotda tutgan ijtimoiy o'rnini ifoda etgan.

Etnoarxeologiya faqat moddiy dalillarni o'rganish bilan cheklanib qolmaydi, balki ular orqali insonning dunyoqarashi, ma'naviy olami va urf-odatlar tizimini ham tiklaydi. Etnografik kuzatuvlar va arxeologik dalillarni qiyoslash orqali tadqiqotchi jamoaning dafn bilan bog'liq an'alarini, motam marosimlarini yoki qabr qurilishidagi ramziy ma'nolarni anglaydi. Bunday yondashuv orqali arxeolog moddiy madaniyat ortidagi madaniy va ruhiy mazmunni tiklaydi. Bu esa turmush tarzini qayta qurishning ilmiy asosini tashkil etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, etnoarxeologiya inson turmush tarzini, uning ishlab chiqarish an'analari, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy dunyosidagi o'zgarishlarni arxeologik ma'lumotlar asosida qayta tiklashga xizmat qiluvchi kompleks ilmiy usullar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat moddiy madaniyatni tahlil qilish bilan cheklanmay, balki jamiyatning ruhiy-ideologik qiyofasini, qadriyat tizimini va tabiat bilan munosabatini ham izchil o'rganish imkonini beradi.

B.X.Matboboyevning arxeologik tadqiqotlarida qayd etilgan dafn marosimlari, qabr inshootlari misolida, etnoarxeologik tahlilning amaliy ahamiyati yaqqol ko'rinadi. Ushbu tadqiqotlarda kuzatilgan qamish tobutlar, xum va savatda ko'mish an'anasi, marhumni ot bilan dafn etish odatlari, qabrga qurol-yarog', oziq-ovqat yoki hashamat buyumlarini qo'yish amali qadimgi insonning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi va ijtimoiy maqomini ifoda etadi. Bu marosimlar moddiy madaniyat elementlari orqali insonning tabiat bilan o'zaro munosabati, hayot va o'lim haqidagi tasavvurlari, hamda jamiyatdagi rollar iyerarxiyasini anglashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Binford, Lewis R. *Nunamiut ethnoarchaeology. Studies in Archeology*. New York: Academic Press., 1978. – 509 p.
2. Daniel Stiles. *Ethnoarchaeology: A Discussion of Methods and Applications*. Man. Vol. 12, №1., 1977. – P. 87-103.
3. David Nicholas, Carol Kramer. [Ethnoarchaeology in action](#). New York: Cambridge University Press, 2001. – P. 3-31.
4. Fewster, Katherine J. The potential of analogy in post-processual archaeologies: A case study from Basimane ward, Serowe, Botswana. *Journal of the Royal Anthropological Institute* № 12.1. 2006. – P. 61–87.
5. Gould, Richard A., and John E. Yellen. Man the hunted: Determinants of household spacing in desert and tropical foraging societies. *Journal of Anthropological Archaeology* № 6.1: 1987. – P. 77–103.
6. Hodder, Ian. *Symbols in action: Ethnoarchaeological studies of material culture*. New Studies in Archaeology. New York: Cambridge Univ. Press., 1982. – 244 p.
7. <https://en.wikipedia.org/wiki/Ethnoarchaeology>
8. Jesse Fewkes. *Tusayan Migration Traditions*. Washington: Washington Government Printing Office, 1901. – P. 579. <https://archive.org/details/cu31924104075415/page/n7/mode/2up>

ILMIY AXBOROT

9. Matboboyev B.X. Qadimgi Farg'onaning ilk o'rta asrlar davri madaniyati (V–VIII asrlar arxeologik manbalarining tarixiy tahlili asosida). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2009. – 408 b. + ill.
10. Normark, Johan. Ethnographic analogies in archaeology. <https://haecceities.wordpress.com/2009/03/29/ethnographic-analogies-in-archaeology/>
11. Robert A. Analogy in Archaeological Interpretation. Southwestern Journal of Anthropology. № 17 (4), 1961. – P. 317–325. <https://www.journals.uchicago.edu/doi/10.1086/soutjanth.17.4.3628943>
12. Stahl, Anne B. Concepts of time and approaches to analogical reasoning in historical perspective. American Antiquity № 58.2. 1993. – P. 235–260.
13. Watson, Patty Jo. The idea of ethnoarchaeology. In Ethnoarchaeology: Implications of ethnography for archaeology. Edited by Carol Kramer, 277–287. New York: Columbia Univ. Press., 1979.
14. Wylie, Alison. The reaction against analogy. In Advances in archaeological method and theory. Vol. 8. Edited by Michael B. Schiffer, 63–111. New York: Academic Press., 1985.
15. Бернштам А.Н. Кенкольский могильник. – Ленинград, 1940. – 36 с.
16. Горбунова Н, Ивочкина Н. Монеты ушу из могильников Ферганы // СГЭ. Вып. LIII. – Л.: Искусство, 1988. – С. 45–50.
17. Литвинский Б.А. Курганы и курумы Западной Ферганы. – М.: Наука, 1972. – 258 с.
18. Лубо-Лесниченко Е.И. Могильник Астана // Восточный Туркестан и Средняя Азия. – М.: Наука, 1984. – С. 108–120.
19. Руденко С.И. Культура населения Горного Алтая в скифское время. – М.–Л., 1953. – 403 с.